

QO‘QON ADABIY MUHITI NAMOYONDALARIDAN BO‘LGAN BUXOROLIK IJODKOR SHAHZODALAR TARIXI

Sherxon QORAYEV,

*Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti
dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori*

Qo‘qon hukmdori Amir Umarxon davrida Buxorodan ikki shahzoda qochib kelib, Farg‘ona o‘lkasidan boshpana so‘raydi. Umarxon shahzodalarni quchoq ochib kutib oladi. Amirzodalardan birinchisi, Muhammad Husaynbiy ibn amir Shohmuroddir.

Ma‘lumki, Amir Haydar (1775-1826) 1800 yilda Buxoro taxtiga o‘tirgandan so‘ng taxtga da‘vogar shahzodalar unga qarshi bosh ko‘taradilar. Mullo Olim Mahdum “Tarixi Turkiston”da yozishicha, *Amir Shohmurod davrida Haydarbiy Qarshi, Dinnosirbiy Marv, Husaynbiy Samarqand viloyati hokimi bo‘lgan.* Ona tomondan ashtarxoniy Abulfayzxonning nabirasi bo‘lgan Amir Haydar taxtga o‘tirgach, isyonchilarga qo‘shilib, ukasi Husaynbiy ham akasiga qarshi chiqadi: *“Amir Haydar olarning ustiga qo‘shun tortib borg‘onda, Kuyovxo‘ja Shahrissabzga va Mahmudbiy Ho‘qandga qochib ketdilar. Fazlbiy avlod va tavob‘otlari ila dastgir va maqtul bo‘ldilar. Ondin keyin Samarqand voliyi Husaynbiy Shahrissabz va Ho‘qand birla ittifoq bo‘lishgan xabari shoyi’ bo‘lub, oni ushlanib, Buxoroga kelturulub, ittifoq bo‘lg‘oniga inkor va qasam qilsa ham bir necha nafar xizmatkorlari maqtul bo‘lub, o‘zig‘a tarahhum yuzasidan go‘shanishin aylab, kunlik vazifa muqarrar qilib, o‘rniga Davlat qushbegini voliyi Samarqand qildi”.* Amir Haydar isyonkor ukasi Husaynbiy ham Samarqand hokimligidan mahrum qilib, Buxoroga olib keladi va qattiq nazorat ostiga oldi. Ammo keyinchalik Husaynbiy Shahrissabz orqali Qo‘qonga qochadi va Farg‘ona mamlakatida amir Haydarning muxolif ukasi izzat – ikrom bilan kutib olinadi. Chunonchi, “Muntaxab ut-tavorix”da shahzoda Muhammad Husaynbiy Shahrissabzda muqim yashab qolgani aytilgan: *“Muhammad Husaynixon ham Samarqandda o‘tirganicha ishi yurishmasligini sezdi va noiloj yo‘nalish jilovini Shahrissabz tomon burdi. Niyozali valina‘mi bu xabarni eshitib, munosib kutib oldi va yaxshi bir uyga tushirib, ko‘p izzat – ikrom ko‘rsatdi. Bir necha vaqtdan so‘ng o‘zining o‘jizasini uning nikohi qaydiga kiritdi. Muhammad Husaynixon ul viloyatda turg‘un bo‘lib qoldi”.* Hakimxon To‘ra Muhammad Husaynning Qo‘qonga qachon kelgan vaqtini aytmagan. Biroq, “Muntaxab ut-tavorix”da yozilishicha, *“o‘sha kezlarida Shohmurodbiy o‘g‘li Mir Husaynixon akasi amir Haydar podshohning jabru zulmidan qiynalib, Samarqand viloyatini tashlab, Shahrissabzga kelib yashayotgan edi. Boshiga amir Umarxonga xizmat qilish xayoli tushib, O‘ratepa sari yuzlandi va sayyidlik panohi Mahmudxon bu xabarni eshitib, unga peshvoz chiqdi. Yaxshi kutib oldi. Uch*

kecha kunduz mehmondorchilik qildi. To‘rtinchi kuni sayyidlik panohi Sultonxonni mehmonga hamroh qilib, Ho‘qand tomon yuzlandilar. Bayt:

**Zi jabri barodar badar omada,
Bar dargohi sulton Umar omada.**

(Mazmuni: Akasi jabridan qochib keldi, Sulton Umar dargohiga ul).

Qo‘qonlik mulozimlar buxorolik shahzodani tantanali kutib olishadi. Qo‘qon xoni Amir Umarxon Husaynni munosib mansablar bilan siylaydi va hurmatini joyiga qo‘yadi. Muhammadhakimxon to‘ra “Muntaxab at-tavorix”da yozishicha, “Ertasi kuni amir Umarxon mehmonni huzuriga chorlab, mehribonchiliklar qildi va qalamini aziz tutib, hurmat ko‘rsatdi...

Amir Husayn ham o‘sha kezlarda amir Umarxon xizmatida bo‘lib, uni devonbegi o‘rnida o‘tqazdi”. Nazarimizda, Umarxon bejizga buxorolik shahzodani o‘z himoyasiga olmagan. Agarda, Buxoro taxtidan amir Haydar ag‘darilsa, u yerga “o‘z odami” Husaynbiyni qo‘yib, qo‘shni mamlakatni ham ta’sir doirasiga olishni istagan. Amir Haydarga yo‘llagan maktubidagi she’riy misralarda ham Umarxonning bu maqsadi namoyon bo‘lgan:

**Buxoro amiri menga itoat qilsa arziydi,
Negaki Umar xalifalikda Haydar (Hazrat Ali)dan oldindadir.**

Umarxonning muddaosi “Muntaxab ut-tavorix”da oshkor bo‘ladi. Aniqroq qilib aytganda, amir Umarxon Mir Husayn qo‘li bilan Buxoro xonligiga qarashli bo‘lgan Samarqand muzofotini egallamoqchi bo‘lgan: “Ancha vaqt o‘tgach, Samarqand va Xitoy – qipchoq yurtlarini olish umidida Shohruxiyani unga berdi. Husaynxon bir yilcha ul qal’ada katta umidlar bilan yashadi. Ammo, qarasa, muddao g‘unchasi osonlikcha ochiladigan emas. Noiloj yana amir huzuriga – Ho‘qandga keldi. Biroq endi amir Umarxon bilan Husaynxon o‘rtasidagi ulfatchilik uncha qizimadi”. Chunki maqsad hosil bo‘lmagach, ikkalasining orasidan olamushuk o‘tgandi. Amir Umarxon ishonchini oqlamagan Mir Husaynga e’tibor bermay qo‘yadi. Umarxon nazaridan qolgan buxorolik shahzoda Husayn yana Shahrisabzga qaytib ketishga majbur bo‘ladi.

Qo‘qon xonligi “Malik ush-shuaro”si Fazliy Namongoniyning “Majmuai shoiron” tazkirasida akasiga bosh egishni istamay, qudratli amir Umarxonga itoat etgan buxorolik shahzoda tarixi shunday ifodalangan:

**Zi Miriy g‘azalxoyi zebo bud,
Ki hamzodi shohi Buxoro bud.
(Miriyning g‘azallari zebo bo‘lib,
U Buxoro shohining tug‘ishgani edi.)
Furubasta az Mir Haydar nazar,
Itoat namuda ba sulton Umar.
(Amir Haydardan ko‘zini yumib,
Sulton Umarga itoat qilgan edi.)**

Mulla Olim Maxdum Hoji “Tarixi Turkiston”da yozishicha, bu davrda “Ho‘qandda Umarxon hukmron bo‘lib, ko‘p fozil va shuarolarni yig‘ib, majmu‘ush shuaro majlis tashkil etgan edi”. Umarxonning xuddi ana shu mashhur majlislariga Muhammad Husaynbek – shoir Miriy ham boshqa nazm ahli qatori qatnasha boshlagan. Ma‘lumotlarga qaraganda, Umarxon saroyida 70 nafardan ortiq shoir xizmat qilgan.

Ayrim manbalarda esa uning ma‘lum muddat Qo‘qonga kelguniga qadar Sayyidiy taxallusli akasi Amir Haydar saroyida ham xizmat qilgani, mushoira yig‘inlarida qatnashgani va keyinchalik akasi bilan kelisholmay, Buxorodan chiqib ketgani aytilgan.

Muhammad Husaynbek Buxoriy iste’dodli shoir bo‘lib, Qo‘qon xoni Umarxonga ergashib, ajoyib she‘rlar yozgan. “Mujmuai shoiron”da Fazliy Namongoniy yetuk va noziktab’ shoir bo‘lgan Buxoro shahzodasi Miriyini “birodari zulmi sababli Buxorodan chiqib ketgani, Qo‘qonda esa Umarxon madhida g‘azallar yozayotgani, amir saroyidagi shoirlar safida o‘z o‘rnini topgani haqida” shunday yozgan:

*Husaynbek farzonai nomdor,
Bud nuri chashmi amiri Buxor.
(Husaynbek oqil va nomdor bo‘lib,
Buxoro amirining ko‘z nuri edi.)
Natoji zi mironi a‘lost ust,
Ki hamzodi shohi Buxorost ust.
(U oliy mirlarning avlodi bo‘lib,
Buxoro shohining birodarzodasidir.)
Bud dudai Doniyol az tabor,
Taxallus ba Miriy shuda oshkor.
(Ulug‘ Doniyol xonadonidan bo‘lib,
Taxallusini Miriy deb qo‘ydi.)
Nekuroyu xush tab’, hozirjavob,
Xirad dastgohu, fatonat ma‘ob.
(Ra‘yi soz, tab‘i xush va hozirjavob,
Sohibi aql va zakovat egasi edi.)
Zi javri birodar badar omada,
Ba dargohi sulton Umar omada.
(Birodarining jabri sababli chiqib ketib,
Sulton Umar dargohiga kelib qolgan edi.)
Zi tab‘i balandi on xirad pesha Mir,
G‘azalho navishta ba madhi Amir.
(Bu oqil Mir o‘zining baland tab‘i bilan,*

Amirning madhi haqida g‘azallar yozgan edi.)

Ba dargohi shohi zival ehtirom,

Shuda dar saffi shoironash maqom.

(Ehtirom sohibi bo‘lgan Amirning dargohida,

Shoirlar safidan o‘rin olgan edi.)

Chi shoirki, shahzodagoni jahon,

Shuda bar dari davlatash madhxon.

(Yo‘q, shoir emas, balki olam shahzodasi,

Amir davlati eshigining maddohiga aylangan edi.)

Tarixiy manbalarga ko‘ra, birinchi marta Farg‘ona o‘lkasiga kelganda, haqiqatan Muhammad Husaynbek – shoir Miriy Qo‘qon xoni shoir Umarxon Amiri saroyida qadrlangan va hukmdorning yaqin suhbatdoshiga aylangan. Muhammadhakimxon to‘ra “Muntaxab at-tavorix”da yozishicha, “*Amir Husayn Amir Umarxon madhida yaxshi bir turkiy qasida bitgan edi va ushbu baytlar mazkur qasidadandir. Muxammas qasida:*

Ey ko‘ngul, mumtoz erur xonlar aro xoqonimiz,

Barcha olamni musaxxar aylagan sultonimiz.

Qaysi sulton, shohi shohonshohi Turkistonimiz,

Sayyidi olam amir al-muslimin xoqonimiz.

Shoh bizning shohimiz, sulton bizi sultonimiz,

Davr bizning davrimiz, davron bizi davronimiz.

Garchi ko‘p kezduk jahonda xoru zoru darbadar,

Tobtuk oxir borgohi hazrati sulton Umar,

Rishtai ixlos ila xizmatga bog‘labmiz kamar,

Shukri lilloh, qildi bizga lutfu shafqatdin nazar,

Shoh bizning shohimiz, sulton bizi sultonimiz,

Davr bizning davrimiz, davron bizi davronimiz.

Yo iloho, davlatu iqbolin afzun aylagil,

Umrin sarshori barxurdor, mamnun aylagil,

Saltanat bobida yo Rab, ani ma‘mur aylagil,

Mirning tiri duosin zud maqbul aylagil,

Shoh bizning shohimiz, sulton bizi sultonimiz,

Davr bizning davrimiz, davron bizi davronimiz.

Ushbu muxammas o‘z davrida mashhur bo‘lgan. U qo‘shiq qilib aytilgan. Ta‘bir joiz bo‘lsa, bu she‘rni “Turkiston sultoni” Amir Umarxonning adabiy majlislarida shoir Miriyning o‘zi o‘qigan bo‘lishi, ehtimoldan holi emas. Bu muxammasga ergashib, qo‘qonlik shoirlar naziralar yozishgan.

Shoir Miriy she'rlarini to'plab, devon tuzgan, bo'lishi ham ehtimoldan holi emas. Negaki, Qo'qonda buning uchun barcha shart-sharoitlar bor edi. Shahzoda bunday qulay imkoniyatdan foydalangan bo'lishi mumkin.

Mir Husayn Buxoriy "Maxozin at-taqvo" ("Taqvo xazinalari") tarixiy asar muallifi hamdir. Asar Buxoro amirlari hamda xonlikdagi so'fiylik tariqatlari tarixiga bag'ishlangan. 1830 yilda she'riy uslubda yozilgan ushbu avtobiografik asarda mang'itlar sulolasining vakili bo'lgan muallif voqealarni nisbatan erkin talqin qilgan. Muallif zamondoshlari haqida keskin mulohazalar bildirar ekan, ko'p jihatdan o'zi ko'rgan voqealarni tasvirlagan. "Maxozin at-taqvo" XVIII asrning oxirgi choragi – XIX asrning birinchi choragida mang'itlar sulolasining ilk hukmdorlari davrida Buxoro xonligi va unga qo'shni hududlar tarixini o'rganishda alohida qiziqish uyg'otadi.

Ikkinchi shahzoda esa amir Haydarning amakivachchasi Is'hoqbek to'ra ibn Mahmudbiy ibn Doniyol otaliqdir. Shoir Mir Is'hoqbek Doniyol otaliqning beshinchi o'g'li Mahmudbiyning farzandidir.¹ Muhammadhakimxon To'ra "Muntaxab at-tavorix" asarida yozishicha, «Mahmudbek ibn Doniyolbek o'g'li Is'hoqbek o'z amakivachchasi amir Haydar podshohdan hadiksirab, necha qiyinchilik va mashaqqat ila qochgancha Shahrisabzga keldi. Niyozali devonbegi uning qadamiga hasanot aytib, izzat - ikrom ko'rsatdi. U yerdan chiqib, O'ratepa viloyatiga o'z xolasining o'g'li sayyidlik panohi Mahmudxon oldiga keldi. U yerdan esa amir Umarxon uzangisini o'pish uchun yetib, ko'runish marosimi bajo keltirdi va amir uni ko'p hurmatlab, xos nadimlaridan biriga aylantirdi».² Umarxon uni devonbegi etib tayinlaydi.

Buxoro shahzodasi Is'hoqbek to'ra amir Umarxonning yaqin suhbatdoshlaridan biri bo'lgan. U amir huzuridagi adabiy kechalar va ulamolar majlislarida ishtirok etgan. Ibrat "Tarixi Farg'ona" va Mulla Olim Maxdum Hoji "Tarixi Turkiston" asarlarida shahzodani "umarolardan hamjuluslari amir Shohmurodxon marhumning o'g'li va amir Haydar podshohi Buxoroning birodari Is'hoqbek to'ra", deb keltiriladi. Holbuki, ikki asarda ham shahzoda Is'hoqbek to'rani Husayn to'rani chalkashtirilib, "amir Haydarning ukasi" deb yozilganini ko'rish mumkin.³

Amir Nasrullo Qo'qonga yurish qilganda, Jizzax hududidagi Yom qal'asida qarshilik ko'rsatgan uning hokimi qarindoshi Is'hoq to'rani qatl etadi. Otasi Haydar qo'lidan qutilgan, uzoq yillar qidiruvdan bo'lgan Is'hoqbiy to'ra amirning o'g'li Nasrullohning qo'liga tushgan edi: "Amir Nasrullohning nigohi qo'lga olingan Is'hoq devonbegiga tushgan zahoti quvonchi ichiga sig'may ketib, darhol jallodni chaqirdi. So'ng jallodga qarab, "manavi bir umr bizning qo'limizdan qochib yurgan edi, hozir

¹ Muhammadhakimxon T'ura. Muntaxab at-tavorix.-To'shkent: Yangi asr avlodi, 2010.-B.31.

² Muhammadhakimxon T'ura. Muntaxab at-tavorix.-To'shkent: Yangi asr avlodi, 2010.-B.342.

³ Qarang: Mulla Olim Maxdum Hoji. Tarixi Turkiston. Nashrga tay'ёрlovchilar: T. Alimardonov, N. Abdull Xakim. –Qarshi: Nasaф, 1992.-B.44; Ibrat. Farg'ona tarixi. Nashrga tay'ёрlovchilar: X. Bobobekov, M. Xasaniy. – To'shkent: Kamalak, 1991.-B.291.

esa juda oson qo'limizga tushdi, endi uni yana qochirmaslik uchun sog' qoldirmasliging zarur", dedi.

Ul la'nati qonxo'r amir Nasrullohdan bu so'zni eshitgani hamono chaqqonlik bilan Is'hoq devonbegining bo'ynidan olib, amir Nasrulloh ro'parasidagi haqorat tuprog'i uzra yiqitdi va ayovsiz qilichi bilan ul aziz yorning boshini nozanin tanadan judo qildi".⁴

"Muntaxab ut-tavorix"da yozilishicha, "mang'it amirzodalari orasida Is'hoq devonbegiga o'xshagan yaxshi siyratli kishi o'tmagan. Ellik yil umr ko'rdi. U yaxshigina she'rlar bitardi. Bu bayt undandir, bayt:

**Bahor omad maro asiri gulu gulzor boisti,
Sharobi vasli yoru bazmi be ag'yor boisti.**

(Mazmuni: Bahor keldi, gulu gulzorga asir bo'lmog'im kerak, Yor vaslining sharobi-yu, raqibsiz bazmi yor kerak.)

Shundan so'ng Muhammadhakimxon To'ra "Va bu turkiy bayt ham unikidir", deb Is'hoqbek madh etilgan fors – tojikcha satrlar ichidagi bir o'zbekcha baytni keltiradi:

**Xirad moyayi hosil Is'hoqbek,
Bud tab'i mavzunu xubu nek.
Pisandida guftor, sanjidago' ast,
Ba alfozi turki zi hajri buton.
Zabonash ba in bayt shud tarjimon.**

**"Bodai vasli nasib ermish manga bu vajhdin,
Kim, erur soqiy raqibu jom iqbolim bugun".**

(Mazmuni: Aql dalasining hosili edi Is'hoqbek, Zehni o'tkir, tab'i yaxshi yo'q aningdek. So'zlari yoqimlidir chertib aytgan zamon, Turkiy tilda sanamlar hajrida yozgani, Ushbu bayt uning dil so'zlariga tarjimon: "Bodai vasli nasib ermish manga bu vajhdin, Kim, erur soqiy raqibu jom iqbolim bugun".)⁵

Muhammad Husaynbiy va Is'hoqbiy to'ralar haqida ma'lumotlar juda kam. Buxoro shahzodasi Husaynbiy Qo'qondan Shahrisabzga qaytib, qolgan umrida ijodga bag'ishlab, shu shaharda vafot etgan bo'lishi mumkin. Muhammadhakimxon to'ra "Muntaxab at-tavorix"da Is'hoqbiy to'ra qatl etilganidan so'ng qaerda dafn etilgani to'g'risida yozmagan. Buxorolik shahzodalar nomi ijodi va ajoyib she'rlari hamda Husaynbiyning "Maxozin at-taqvo" asari orqali adabiyatga muhrlangan, boqiy qolgan, deyish mumkin. Kelgusida tadqiqotchilar tomonidan Muhammad Husaynbiy va Is'hoqbiy to'ralar hayoti, faoliyati va ijodini o'rganish, tadqiq etish taqozo etiladi. Bu esa mumtoz adabiyotimiz tarixida Buxoro, Qo'qon va Shahrisabz adabiy muhiti yorqin

⁴ Мухаммадхакимхон Тўра. Мунтахаб ат- таворих.-Тошкент: Янги аср авлоди, 2010.-Б.163.

⁵ Мухаммадхакимхон Тўра. Мунтахаб ат- таворих.-Тошкент: Янги аср авлоди, 2010.-Б.164.

namoyandasi Muhammad Husayn Miriy va Is'hoqbek to'radek shoirlarning o'z o'rnini topishiga xizmat qiladi, o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rajabov Q. Amir Haydar yoxud Amiri Sayyid.//Buxoro, Buxoro mavjlari, 2006 yil, fevral.-№2.-B.40-42.
2. Abdulkarim Fazliy Namangoniy. "Majmuai shoiron". T.: Fan, 2018.-B.240.
3. O'zbekiston xalqlari tarixi. 2-jild. T.: Fan -1993.-B.81.
4. Muhammadhakimxon To'ra. Muntaxab at-tavorix.T.: Yangi asr avlodi, 2010.-B.665-666.
5. <https://www.ziyouz.uz/ru/literatura/xvi-vek-pervaya-polovina-xix-veka/562-1778-1829>
6. O'zbekiston tarixiga oid manba va tadqiqotlar.(XIX-XX asr boshlari). Mas'ul muharrir: D.Ziyaeva. T.: "Nurafshon business", 2022.-B.2022.-B.38-39.
7. Mulla Olim Maxdum Hoji. Tarixi Turkiston. Nashrga tayyorlovchilar: T. Alimardonov, N. Abdul Hakim. –Qarshi: Nasaf, 1992.-B.44.
8. Ibrat. Farg'ona tarixi. Nashrga tayyorlovchilar: H.Bobobekov, M.Hasaniy. – Toshkent: Kamalak, 1991.-B.291.
9. Qorayev Sh. O'zbek xonliklarida adabiy kechalar (Muhammad Shayboniyxon va shayboniydar davri misolida). -T.: "LESSON –PRESS", 2022.-B.114.
10. Qorayev Sh. O'rta asr manbalarida o'zbek xonliklari adabiy kechalari tarixi (Muhammad Shayboniyxon va shayboniydar davri misolida). -Qarshi: "Intellekt", 2023.-B.148.
11. Qorayev Sh. Shayboniy sultonlar tazkirasi. Monografiya. -Qarshi: Intellekt, 2023.-B.206.
12. Qorayev Sh. O'zbek sultonlari tazkirasi. Monografiya.-Qarshi: Ilm-fan va ma'naviyat, 2024.-B.264.